



NAMANGAN VILOYATI KOSONSOY TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 12-noyabr

447-6-80-Q/24

Kosonsoy tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini 2025-yil uchun band qilib qo'yish to'g'risida

“Aholi bandligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasi, “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 43-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrda 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida”gi Nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi 19-2019-B-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida”gi Nizomga (ro'yxat raqami 3163, 2019 yil 31 may) asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2025 yil uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2025 yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. “Aholi bandligi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 38-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda

qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (Keyingi o‘rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) uchun ish o‘rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha 70 nafarni tashkil etadigan 7.0 foiz miqdorida, shu jumladan:

nogironlar uchun 2,6 foiz (26 nafar);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 1,4 foiz (14nafar);

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 1.0 foiz (10 nafar);

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0,6 foiz (6 nafar);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 0,4 foiz (4 nafar);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tUSDagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,7 foiz (7 nafar);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 0,2 foiz (2 nafar);

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 0,1 foiz (1 nafar); miqdorida ish o‘rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariyagigiyena me‘yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta‘minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

-safariarlik chaqiruvi zahirasiida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

- nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazilgan va xodimga ularning sog'lig'i holatini va mehnat faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to'siqsiz bajarish imkonini beradigan;

-pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo'lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tushdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

-odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan.

- oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan.

4. Quyidagi ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar etibbelgilansin:

muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o'qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, o'tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog'bon, qorovul.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko'rsatilgan ish o'rinlari tashkil etilishini ta'minlasin;

2025-yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo'yiladigan umumiy ish o'rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo'yilishini va tayyorligini ta'minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limini xabardor qilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o'rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo'yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2025 yilning birinchi choragi mobaynida ta'minlasin, bu haqda tuman Bandlik bo'limiga birinchi chorak tamom bo'lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

- har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo'yicha axborot taqdim etsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlari tayyorligi to'g'risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun isho'rinlarining eng kam sonini belgilash bo'yicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan ma'muriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami 3163, 2019 yil 31 may) asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq to'lashni ta'minlasin.

8. Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (X.Xaydarov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida ko'rsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari e'tiboriga yetkazilishini ta'minlasin.

9. Mazkur qaror "Kosonsoynoma" gazetasida rasman e'lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

10. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab 3 oydan keyin kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari E.Toshpulatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



D.Kadirov

Kosonsoy tuman hokimining
2024-yil 12-noyabrdagi
447-6-80-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida
teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo'lmagan shaxslar uchun ish joylarining
eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya tarkibi**

Komissiya raisi

1. E. Toshpulatov - Tuman hokimining o'rinbosari

Komissiya raisining o'rinbosari

2. X.Xaydarov - Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka
ko'maklashish bo'limi boshlig'i

Komissiya a'zolari

3. J.Ahmedov - "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi direktori
4. A.Qirg'izov - Kosonsoy tuman statistika bo'limi boshlig'i
5. D. Sottiyev - Tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka
ko'maklashish bo'limi mutaxassisi, komissiya kotibi.

Izoh: komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, ularning o'rniga yangi tayinlangan
shaxslar komissiya a'zosi hisoblanadi.

Kosonsoy tuman hokimining
2024-yil 12-noyabrdagi
447-6-80-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda
raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va
tashkilotlar ro‘yxati**

R O‘ Y X A T I

No	Tashkilotlar	Jamishi ovc hila r son i	Yarat i lishi lozim bo‘lga n ish o‘rinl a r soni	Shu jumladan
----	--------------	---	--	--------------

				Nogironlar uchun (3 foiz)	Umumiy oʻrta va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalarini tamolagan yoshlar,	Oʻn toʻrt yoshgacha va nogiron bolalari boʻlgan yolgʻiz va koʻp bolali oilalar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Safarbarlik chaqiruvi zaxirasidagi xizmatni oʻtagan va Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida muddatli harbiy xizmatdagi	Jazoni ijro etish muassasalari dan ozod qilingan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tushdagi majburlov choralari qoʻllanilishi dan ozod qilingan shaxslar uchun	Atrofdagilar uchun xavf tugʻdirmaydigan ijtimoiy axamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun	oilaviy (maishiy) zoʻravonlikdan jabrlanganlar	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun
--	--	--	--	---------------------------	--	--	--------------------------------------	---	---	--	--	--

					shuni ngde k, oliy ta'lim muas sasala rining davla t grantl ari bo'yi cha ta'lim olgan bitiru vchil ari uchu n							bo'shatil gan shaxslar uchun									
				soni	foizi	soni	foizi	soni	foiz i	soni	foiz i	soni	foiz i	soni	foizi	soni	foizi	son i	foiz i	so ni	foizi

1	KOSON SOY TUMAN OBODO NLASH	238	17	7	2,9	2	0,8	2	0,8	2	0,8	1	0,4	2	0,8	0	0,0	1	0,4	0	0,0
---	---	-----	----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----

	TIRISH BOSHQ ARMASI																				
2	Kosonso y davlat o'rmon xo'jaligi	72	5	2	2,8	1	1,4	0	0,0	1	1,4	0	0,0	1	1,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0

3	KOSON SOY TUMAN MAKTA BGACH A VA MAKTA B TA'LIMI BO'LIMI GA QARAS HLI 15- SONLI UMUMI Y O'RTA TA'LIM MAKTA BI	76	5	2	2,6	1	1,3	1	1,3	1	1,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
---	--	----	---	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----

4	KOSON SOY TUMAN MAKTA BGACH A VA MAKTA B TA'LIMI BO'LIMI GA QARAS HLI 44- SONLI UMUMI Y O'RTA TA'LIM MAKTA BI	83	6	2	2,4	1	1,2	1	1,2	0	0,0	1	1,2	1	1,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0
---	--	----	---	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----

6	KOSON SOY TUMAN 1-SONLI KASBHUNAR MAKTA BI	103	7	3	2,9	1	1,0	1	1,0	0	0,0	1	1,0	0	0,0	0	0,0	1	1,0	0	0,0
7	22- Davlat ixtisoslas hgan maktabinternati	57	4	1	1,8	1	1,8	1	1,8	0	0,0	0	0,0	1	1,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0

8	KOSON SOY TUMAN MAKTA BGACH A TA'LIM BO'LIMI GA QARAS HLI 2SONLI DAVLA T MAKTA BGACH A TA'LIM TASHKI LOTI	43	3	1	2,3	0	0,0	1	2,3	0	0,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
---	--	----	---	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----

9	"KOSON SOY TUMAN YO'LLA RDAN FOYDA LANISH " unitar	85	6	1	1,2	1	1,2	2	2,4	1	1,2	0	0,0	1	1,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0
---	---	----	---	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----	---	-----

	korxonas i																				
10	"OBOD" mas'uliya ti cheklang an jamiyati	42	3	1	2,4	0	0,0	1	2,4	0	0,0	0	0,0	1	2,4	0	0,0	0	0,0	0	0,0

[illegible]

A VA MAKTA B TA'LIM I BO'LIM I GA QARAS HLI 36- SONLI UMUMI Y O'RTA TA'LIM MAKTA BI																				
ЖАМИ	999	70	26	2,6	14	1,4	10	1,0	6	0,6	4	0,4	7	0,7	-	0,0	2	0,2	1	0,1